# Bosh Vaziri oʻrinbosari Behzod Anvarovich Musaev va Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vaziri Inomjon Urishovich Majidov institutga tashrif buyurishdi

2020 yilning 10 noyabr kuni Oʻzbekiston Respublikasi Bosh Vaziri oʻrinbosari Behzod Anvarovich Musaev Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vaziri Inomjon Urishovich Majidov bilan birgalikda institutga tashrif buyurishdi. Tashrif chogʻida institutda masofadan turib olib borilayotgan onlayn darslarning sifati bilan yaqindan tanishdi. Shu bilan birgalikda institut oʻquv binolariga kirib professor-oʻqituvchilarning onlayn darslari bilan yaqin tanishdi. Institut laboratoriyalari va Case, John Deer, Rostselmash kabi qishloq xoʻjaligi mashinalari maxsus auditoriyalarini borib koʻrdi hamda Oʻzbekiston Respublikasi 5 tashabbusi asosida institutda yaratilgan sharoitlarni, shu jumladan, sport zallari, sport toʻgaraklari bilan yaqindan tanishishdi. Talabalar turar joyidagi kutubxona va kompyuter sinfini koʻzdan kechirishdi. Tashrif mobaynida oʻz mulohaza va takliflari bilan oʻrtoqlashildi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**